Mutalov Saidakbar Xamidullo o‘g‘li
NamDPI Ijtimoiy fanlar fakulteti dekani,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Namangan, O‘zbekiston
E-mail: saidakbarmutalov@gmail.com

AUDITORIYADAN TASHQARI MASHG‘ULOTLAR ASOSIDA TALABALARDA LIDERLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17266927

Annotatsiya. Maqolada talabalarning liderlik qobiliyatini rivojlantirishda auditoriyadan tashqari maqsadli tadbirlarning ahamiyati, xususan, treninglarni tashkil etish, ularning metodologik jihatlari, talabalarning ijodiy va ijtimoiy faolligini oshirish, pedagogik jarayonlarda jamoaviy ishlashning o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: talaba, lider, trening, mentor, o‘yin, trener, ijtimoiy faollik, interfaol metodlar, jamoa, guruh, shaxs, muammoli ta’lim, motivatsiya.

Kirish

Zamonaviy oliy ta’lim sharoitida talabalarning ijtimoiy-pedagogik faolligini oshirish, liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish, shaxsiy samaradorlikka erishishlarini ta’minlashda innovatsion xarakterdagi ta’lim-tarbiya shakllaridan foydalanish muhim vazifa sanaladi.

Xususan, pedagogik kouching asosida talabalarning eruditsiyasini mustahkamlab borish, innovatsion ta’lim muhitini yaratishga doir ishlarda sifatli natijani qo‘lga kiritish mexanizmlarini modifikatsiya qilish hamda jamoaviy ishlashga alohida e’tibor qaratish g‘oyat muhim. Jamoaviy ishlash talabalarda yashirin qobiliyatlarni yuzaga chiqarish, o‘zgalarga namuna bo‘lishga yordam beradi. Pirovardida talabalarda liderlik imkoniyatlari kengayadi, qobiliyatlar mustahkamlanadi.

“Liderni oddiy shaxsdan farqliroq tomoni uning muloqot, ishontirish, suhbatlashish san’atlarini, muomala madaniyatini mohirona egallashi bilan ma’naviy qiyofasini yuksaltirib borishi bilan tavsiflanadi”[5; 42-b.]. Shuning uchun, talabalarning liderlik qobiliyatini rivojlantirish mobaynida auditoriyadan tashqari ixtisoslashtirilgan loyiha mashg‘ulotlari va treninglarni alohida e’tibor qaratish lozim. Trening va o‘quv loyihalari ulardagi kommunikativlik sifatlari va individual kompetensiyalarini namoyon qilishlariga zamin yaratadi. Ayniqsa, bu borada mentor yoki trener tomonidan kuchli idrok asosida jamoadagi talabalarga “inson-inson” munosabatlari orqali samarali ta’sir etishi ahamiyatli.

Adabiyotlar tahlili

Los-Anjeles oliy ta’lim ilmiy-tadqiqot instituti professori A.Astinning qayd etishicha, “Oliy o‘quv yurtlarida talabalarda liderlikni rivojlantirish juda muhim va foydalidir. Chunki bakalavr darajasida ularning tajribasini boyitib borish, ularga kelgusida o‘z hayotlarini nazorat qilish hissini beradi”[3; 18-b.].

A.Astin o‘z tadqiqotlarida pedagogik jarayonlarda talabalar o‘z vaqtlarining katta qismini o‘quv rejadagi darslarga qaratib, faqatgina auditoriya mashg‘ulotlarini bajarishgagina bog‘lanib qolganligini muammo sifatida talqin qiladi. Talabalarning auditoriya mashg‘ulotlaridan tashqari vaqtlarda qamrab olib, ularning vaqtlarini mazmunli tashkil etishning optimal yechimlarini e’tibor olishni muhim deb biladi. Mazkur jarayonlarni to‘g‘ri tashkil etish uchun 7 ta muhim omillarni hisobga olish lozim:

Talabaning ijtimoiy (oilaviy) ahvoli;
Yoshi va yashash hududining xususiyatlari;
Yoshlar tashkilotlaridagi faolligi;
Vaqtni to‘g‘ri taqsimlashi;
Ko‘ngillilik (volontyorlik) faoliyatiga bo‘lgan motivi;
Jamoa bilan ishlash layoqati;

Moliyaviy resurslardan foydalanishi

Yuqorida keltirilgan tadbirlar, talabalarni qariyb muntazam ravishda ijodiy izlanishi, liderlik qobiliyatini kuchaytirish va ularni amaliyotda muayyan darajada qo‘llay olish imkoniyatini beradi.

Pedagogik nuqtai-nazardan treninglar orqali talabalar o‘zida mavjud bilimlarni mentor tomonidan berilgan kompetensiya va ko‘nikmalar yordamida mustahkamlaydi. Jamoada o‘z o‘rnini topishga bo‘lgan motivatsiya orqali liderlik qobiliyatlarini rivojlantirib, o‘zaro hamkorlik munosabatlarini o‘zlashtiradi. Psixologik jihatdan esa, talabaning barkamollik darajasini oshiradi. Eng muhimi, har qanday muammoli vaziyatda faqat o‘zining kuchidan foydalanishga o‘rganadi va o‘ziga bo‘lgan ishonchi ortadi. Shu boisdan ham, talabalarning aqliy salohiyatini har tomonlama rivojlantirib borish, kreativ fikrlash, favqulodda mustaqil qaror qabul qila olish qobiliyatini mustahkamlashda hamda bugungi o‘zgarishlarga qisqa muddatlarda samarali moslasha oladigan yetuk kadr bo‘lishida interfaol trening mashg‘ulotlarining ahamiyati har doim muhim.

Sohaga oid tadqiqotlarda “amaliy o‘yinlar, muammoli o‘qitish, interfaol ta’lim, kredit-modul tizimi, masofali o‘qitish, aralash o‘qitish (blended learning) hamda mahorat darslarini bugungi kundagi ta’limning innovatsion shakllari sifatida e’tirof etilmoqda” [2; 67-b.]. Haqiqatan ham mazkur texnologik yondashuvlar pedagogik jarayonlarda talabalarning o‘quv-bilish faoliyatini kuchaytirish va shaxsiy rivojlantirish borasida o‘zining ijobiy isbotini topgan. Shuningdek, talabalarda liderlik qobiliyatini rivojlantirishga doir o‘quv-tarbiyaviy muhit – trening, loyihaviy o‘qitish, kreativ dars, self menejment, psixologik aloqa, faol tinglash, eksperiment, jamoaviy o‘yin texnologiyalari kabi ta’limning innovatsion shakllari asosida barqarorlashtiriladi.

Talabalarda liderlik qobiliyatini rivojlantirish jarayonining asosiy qismi auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Ular o‘quv jarayonlari va fan sohalarida olgan bilimlari, egallagan ko‘nikmalarini amaliyotda emin-erkin qo‘llay olish imkoniyatini maxsus tashkil etilgan pedagogik trening mashg‘ulotlarida sinovdan o‘tkazadilar va mustahkamlab boradilar. Bu jarayonda talabalarning liderlik imkoniyatlarini va individual qobiliyatlarining tashxisini o‘z ichiga oladi. Shaxsdagi liderlik darajasini aniqlash va baholash (B.Bass), liderlik qobiliyatini tashxis qilish (Y.Jarikov, Y.Krushelnitskiy), “Men liderman” (A.Lutoshkin), “Lider metodikasi” testi (V.Spivak) kabi metodik yondashuvlar trening dasturi faoliyat yo‘nalishini belgilab beradi [4; 186-b.].

Aslida, trening mashg‘ulotlarini milliy pedagogikamizdagi innovatsion jarayon sifatida qayd etish qiyin, biroq uning metodologik mexanizmlarini modernizatsiya qilish, ta’lim-tarbiya usullariga texnologik yangiliklarni tatbiq etish orqali samaradorlikka erishish imkoniyatlarini kengaytirish nazarda tutiladi. Treninglar vositasida talabalar o‘zaro ijtimoiy-pedagogik munosabatlarga kirishadi. Turli darajadagi iqtidor va qobiliyat egalari umumiy rivojlantiruvchi maqsad atrofida bir jamoa sifatida birlashadilar. O‘z xohish-irodasi va bilimini namoyish etish uchun nafaqat imkoniyat yaratiladi balki, o‘z jamoaviy vazifalarni bajarishga bo‘lgan majburiyat yuklanadi [7; 223-b.].

Tadqiqot metodologiyasi

Ta’lim muassasasidagi klub, markaz (to‘garak) va uyushmalarning zamonaviy faoliyatga asoslanganligi talabalar o‘rtasida liderlar sonini ortishiga turki beruvchi omil sanaladi. Ba’zi hollarda ta’lim muassasalaridagi klub, to‘garak va markazlar odatda nomigagina tashkil etilib, eski davr dasturlari bilan yuzaki faoliyat yuritishiga ham guvoh bo‘lganmiz. Biroq bugungi kun talabi, talabalarning kreativ dunyoqarashi va intellektual chanqoqligi ham zamon bilan hamnafas yangi formatdagi faoliyatga muhtoj. Ayni o‘rinda bu turdagi faoliyat uchun tyutorlik, fasilitatorlik, mentorlik va edvayzerlik dasturlarini joriy qilishni taqozo etmoqda.

Liderlik qobiliyatlarni rivojlantirish, tizimlilik

qoidasi bo‘yicha uzluksiz amalga oshiriladigan yuqoridagi kabi pedagogik sa’y-harakatlarni nazarda tutadi. Mazkur vazifaning markazida turgan pedagogdan esa yuksak mahorat, shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi va mustahkamlovchi metodik tamoyillar asosidagi kompetensiyalar talab etiladi. Pedagog vazifasining e’tiborli xususiyati nimalardan iborat deydigan bo‘lsak, jamoaviy ta’lim-tarbiya sharoitida deyarli barcha talabalarning psixologik portreti va ijtimoiy shakllanganlik darajasini aniqlash hamda individual motivlarini maqsadli yo‘naltira olish mas’uliyati his etishdan iborat [8]. Shunday ekan, talabalarning liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish asosida ulardagi keng qamrovli mahoratlarini, kasbiy kompetentligini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish, bu borada zamonaviy pedagogik usullar, ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, innovatsion strategiyalar, smart uslublar va texnologiyalaridan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Trening – interfaol mashg‘ulotlarni amalga oshirishning asosiy shakli bo‘lib, o‘rganilishi lozim bo‘lgan nazariy g‘oya va fikrlarni amaliy ish, mashqlar davomida o‘zlashtirish imkonini beradigan tashkiliy tadbir hisoblanadi. Treninglar ta’lim oluvchilarda nafaqat shaxslararo o‘zaro hamkorlikning samarali ko‘nikmalarini shakllantirishga balki, bo‘lajak mutaxassis kasbiy kompetentligining umumiy darajasini oshirishga yo‘naltiriladi. “Treninglar mobaynida talabalar nazariy ma’lumotlarni o‘zlashtirish bilan bir qatorda, ularda hissiy kechinmalar, bilish va xulq-atvor ko‘nikmalari rivojlanadi” [6.83].

Treninglar vositasida talabalar o‘zaro ijtimoiy-pedagogik munosabatlarga kirishadi. O‘z xohish-irodasi va bilimini namoyish etish uchun nafaqat imkoniyat yaratiladi balki, o‘z jamoaviy mas’uliyatini bajarishga majburiyat yuklanadi. Trening davomida mentor yoki trener jamoani kichik guruhlarga ajratgan holda individual faoliyatni tashkil etadi. Buning uchun umumiylikdan xususiylikka tamoyili ostida o‘zining perseptiv imkoniyatlari va didaktik resurslarini har bir talaba bilan uzviy aloqa o‘rnatilishiga safarbar etishi kerak. Pedagogik sharoitda treninglardan foydalanish talabalarga zaruriy ko‘nikmalarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishiga ko‘maklashuvchi bilimlar tizimi sifatida, o‘zaro ta’sir etishning eng samarali metodi deyish mumkin.

Treningning yana bir xususiyati shundaki, ko‘nikma, malaka va bilimlar xuddi bir butun tajriba ko‘rinishida shaxs tomonidan hissiy kechinma sifatida o‘zlashtiriladi. Bunday jarayon asosida trening ishtirokchisining ta’lim muhitidagi shaxslararo munosabatlar tizimida o‘tadigan faol munosabati yotadi. O‘zaro munosabatlar davomida amal qiluvchi turli guruhiy jarayonlar – liderlik fenomeni, o‘zaro ta’sir, guruhiy ahillik yuzaga keltiradi[1; 122-b.]. Talabalarning liderlik qobiliyatini amaliy jihatdan rivojlantirish o‘ziga xos pedagogik jarayon sifatida bosqichma-bosqich faoliyatni taqozo etadi. Trening mashg‘ulotlari bu boradagi sa’y-harakatlarning bir bo‘g‘ini sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Natijalar va tahlillar

Kuzatishlarimiz shuni ifoda etdiki, trening mashg‘ulotlari davomida ishtirokchilarga ulashilgan nazariy bilimlar, amaliy ko‘rsatma va tavsiyalar, ular tomonidan umumiy jamoaviy topshiriqlarni mustaqil bajarishida ahamiyati va samarasining yuqori ekanini ko‘rsatib, o‘zaro pedagogik-psixologik va ijtimoiy munosabatlar asosida faollik, kommunikativlik va tashabbuskorlik kompetensiyalarini rivojlantirib borishi mumkin.

Trening dasturini ta’lim muassasasining psixologlari yoki shu yo‘nalishda malakasi mavjud pedagoglar, tyutor va yoshlar tashkiloti vakillari tomonidan olib boriladi. Nazariy va amaliy blok o‘rtasida tanaffus uchun alohida vaqt ajratilishiga e’tibor qaratilishi lozim. Modullarni o‘qitish jarayonlarida trening moderatorlari (o‘qituvchi, tyutor, yetakchi)dan o‘ziga xos pedagogik takt va mahorat, liderlik kompetensiyalari va eng muhimi innovatsion ta’lim muhitiga muvofiqlik talab etiladi. Trening dasturining didaktik vositalari, media va texnologik ma-

teriallar, kanselyariya vositalari bilan ta'minlashda modullarning mavzusiga moslik darajasiga alohida e'tibor qaratish lozim.

Taklif etilayotgan amaliy trening mashg'ulotlari shakllantiruvchi, motivatsiya beruvchi va rivojlantiruvchi bosqichlarining ketma-ketligi asosida, talaba-yoshlarning refleksiv va emotsional-irodaviy (empatik) aspektda diagnostik kuzatish, ayniqsa, shaxsiy imkoniyatlariga ishonchini oshirish, maqsadga yo'nalganlik, dominantlik, tashabbuskorlik, mas'uliyatlilik, konstruktiv muloqot ko'nikmalari va muvaffaqiyat ambitsiyalarini namoyon etishiga faol ta'sir eta olishi bilan ahamiyatlidir. Tadqiqot doirasida trening mashg'ulotlarining nazariy bloki bilimlarini mustahkamlash maqsadida talabalarning liderlik qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan trening mashg'ulotlari to'plami ishlab chiqilgan bo'lib, quyida ularga batafsil to'xtalib o'tilgan.

Modul. O'zini anglash va o'ziga ishonch hissini tarbiyalash.

"Men noyobman" mashqi. Zarur vositalar: flipchart yoki vatman, marker.

Guruh a'zolari aylana shaklida joylashadilar. Moderator flipchartga "Men noyobman..." deya boshlanuvchi jumlani davom ettirishni talab qiladi va uning uchun 1 daqiqa vaqt ajratadi. Moderator o'zi istagan ishtirokchiga markerni taqdim qilgani zahoti o'sha ishtirokchi boshqalarda uchramaydigan eng yaxshi qobiliyatlari yoki noyob iste'dodini "Men noyobman..." so'zi bilan boshlab davom ettiradi. Fikrini bayon etib jamoa a'zolarini ishontirib, amalda ko'rsatib beradi. Shundan so'ng ishtirokchilar noyobligini ifodalash ketma-ket almashadi.

Modul. Jamoa nima va u qanday shakllanadi?

"Muvozanat" mashqi. Zarur vositalar: stul

Ishtirokchilar o'z stullarini aylana shaklida joylashtirib, uning tashqarisiga o'zlari joylashadilar. Har bir ishtirokchi o'z stulini 45 gradus qiyalikda ushlaydi, faqat bir qo'lda tutib turadi. Moderatorning ko'rsatmasiga asosan stul muvozanatini saqlagan holda, navbatdagi ishtirokchining stulini ushlaydi. Shu tarzda soat strelkasi bo'ylab harakat davom etadi. Qaysi ishtirokchi stulni tuta olmasa, tushirib yuborsa yoki bir biriga tegizib yuborsa, harakat qayerga borganligidan qat'iy nazar dastlabki joydan boshlanadi.

Modul. Lider kim va u qanday shakllanadi?

"Lider taqdimoti" mashqi. Zarur vositalar: vatman, rangli markerlar.

Jamoaning barcha ishtirokchilari 1 dan 4 gacha sanagan holda, 4 ta kichik guruhga bo'linadilar. Har bir guruhga o'z idealidagi lider kim ekani, ular istagan liderda qanday bilim va ko'nikmalar bo'lishi lozimligi bo'yicha taqdimot tayyorlaydi. (Guruh a'zolari o'zining fantaziyasi va kreativ yondashuvi asosida imkoniyatga qarab intervyu, videolavha yoki boshqa shaklda taqdimot qilishi mumkin) 15 daqiqadan so'ng har bir guruh, o'z a'zolari bilan liderlik taqdimoti o'tkazadilar. Qolganlar taqdimotni baholab boradilar va guruhning har bir a'zosiga liderlikka oid savollar beradi.

Modul. Samarali muloqot qilish va notiqlik san'ati.

"Muzokara" mashqi. Zarur vositalar: stiker, marker, quticha.

Jamoa a'zolari ikki guruhga bo'linadi va 2 qator bo'lib yuzma-yuz holatda joylashtiriladi. Moderator tomonidan muzokara rollari qayd etilgan stikerlar har bir juftlikka taqdim etiladi. Muzokara rollari "Rahbar va xodim", "Jurnalist va xodim", "Diplomat va elchi", "Deputat va fuqaro", "Professor va talaba" va boshqalar. Juftlikdagi ishtirokchilarning tayyorgarlik ko'rishlari uchun 5 daqiqa vaqt beriladi. Har bir ishtirokchi o'ziga berilgan rollar asosida 3 daqiqalik muzokara suhbatini namoyish qilib berishlari lozim. Yakunda muzokara jarayonlarining yutuq va qusurlari jamoaviy muhokama qilinadi.

Modul. Shaxsiy rivojlanish sirlari.

"Odatlarni tizimlashtirish" mashqi. Zarur vositalar: ruchka, list, bloknot, flipchart.

Jamoa a'zolarining har biriga shaxsiy rivojlanish va samaradorlikka erishishda qanday odatlarni o'zlashtirish kerakligini qayd qilish topshirig'i beriladi. Har bir

ishtirokchi 5 daqiqa davomida o‘z dunyoqarashi va hayot tajribasi asosida turli odatlarni yozadi. Moderator ishtirokchilar yozgan odatlar ro‘yxatini aralashtirib, qayta tarqatadi. Har bir ishtirokchi moderator bergan qaydlarni o‘qib eshittiradi. Eng yaxshi odatlar tizimlashtirilib, moderator tomonidan flipchartga yozib boriladi.

6. Modul. Ruhiy barqarorlik, stressni bartaraf etish va nizolarni bartaraf etish usullari.

“Hissiyotni anglash” mashqi. Zarur vositalar: marker, stikerlar.

Har bir ishtirokchiga stiker tarqatiladi va mazkur stikerlarga turli his-tuyog‘ularning nomini qayd qilish buyuriladi. Imkon qadar biridan farqli tuyg‘ularni yozish lozim. Shundan so‘ng barcha stikerlar aralashtiriladi va ishtirokchilarga tarqatiladi. Barcha ishtirokchilar doira shaklida o‘tirishadi va navbat bilan qo‘llaridagi stikerlaridagi his-tuyg‘uni boshidan kechirayotgan odamning xatti-harakatini so‘zsiz ifodalashga harakat qiladilar. Qolganlar esa qaysi hissiyot ekanini topishlari kerak. To‘g‘ri topilmagunicha o‘xshatishga harakat qilinadi, topilganidan so‘ng navbatdagi ishtirokchi shartni bajaradi.

7. Modul. Vaqtni boshqarish san’ati (time management).

“Kun tartibi” mashqi. Zarur vositalar: marker, vatman, flipchart.

Jamoa a’zolariga 2 tadan rangli stikerlar tarqatiladi. Stikerlarning birida vaqt (masalan 8, 10, 18, 24 soat va h.k), ikkinchisida muhim topshiriq yoki vazifa yozilgan bo‘ladi. Har bir ishtirokchilar o‘z stikerlarida qayd qilingan vaqtga moslab shaxsiy kun tartiblarini shakllantirishlari lozim. Vazifalar taqsimotini stikerdagi vaqtdan kelib chiqib, kun tartibining ichiga kiritishlari lozim. Kun tartibini shakllantirishda real imkoniyat va resurslar asosidagi aniq yondashuv talab qilinadi. Yakunda jarayon tahlil qilinadi, topshiriqni uddalay olmaganlarga xohlovchilar tomonidan kun tartibi tuzib beriladi.

8. Modul. Yumshoq mahoratlar (soft skills) ning afzalliklari.

“Yana qanday...?” nomli mashq. Zarur vositalar: list, stiker, bloknot, ruchka.

Jamoa a’zolariga moderator tomonidan stikerlar tarqatiladi. Har bir stikerlarda 3 ta turli buyum yoki jihozlarning nomlari keltirilgan bo‘ladi. (masalan qalam, choynak, telefon) Ishtirokchilar 5 daqiqa mobaynida har bir jihoz yoki buyumning o‘z vazifasidan boshqa yana qanday maqsadlarda foydalanish mumkinligini yozishlari kerak bo‘ladi. Asosiy vaqtda e’tibor qilinmagan jihatlarga qolgan ishtirokchilar fikr bildirishlari mumkin.

Yuqorida keltirilgan trening mashg‘ulotlari to‘plami talabalarning liderlik qobiliyatini rivojlantirish, ularda shaxsiy samaradorlik va ijtimoiy faollikni oshirishda o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsata oldi. Tadqiqot ishi doirasida talabalarning refleksiv va emotsional holatidagi barqarorlik, o‘zaro munosabatlarda dominantlik xususiyatlarining o‘sishi, shaxslararo ta’sir etish va boshqarishda kommunikativ resurslarni ongli yo‘naltirish imkoniyatlari kengaygani ishning natijadorligini ko‘rsatib berdi.

Xulosa

Oliy o‘quv yurtidagi ijtimoiy-madaniy muhit barqarorligi asosida yo‘lga qo‘yilgan auditoriya tashqari mashg‘ulotlarda, shaxsga yo‘naltirilgan ilg‘or ta’lim texnologiyalarini amaliyotga faol tatbiq etish, muassasaning yoshlar va jamoat tashkilotlari bilan ijtimoiy-pedagogik hamkorlikni mustahkamlash, talabalarning ijtimoiy daxldorlik mas’uliyatini shakllantirib, ulardagi liderlik imkoniyatlarini kengayishiga hissa qo‘shadi.

OTM talabalarini ijtimoiy-foydali loyihalarga jalb etish etishda zamonaviy ta’lim texnologiyalarining ijtimoiy, pedagogik-psixologik ustuvorligiga qarab, loyihaviy, interaktiv, kreativ, muammoli, o‘yinli, motivatsiyali tamoyillariga tayanish ayni foydali. Ularda liderlikni tarbiyalashning texnologik komponenti faqatgina ta’limni tashkil etishning (o‘qitishning nazariy va amaliy shakli, talabalarning mustaqil ishi) asosiy shakllarinigina emas, balki ularni har tomonlama faollashtiradigan, tashabbuskorlikni rivojlantirishga qaratilgan metodlar, shuningdek, ta’lim-tarbiya faoliyatida talabalarning shaxsiy va professional

kompetensiyalarni shakllantiruvchi, moslashuvchan va maxsus ko‘nikmalar (soft skills, hard skills)ni rivojlantiruvchi guruhli va jamoaviy shakllarini ham o‘z ichiga oladi.

Talabalardagi tashabbuskorlik, novatorlik va faollik tendensiyasining tag zamirida, ularning liderlik hodisasini mazmunan anglashi, volontyorlik faoliyatida ishtirok etib borishi, ijtimoiy muammolarni tizimli bartaraf etishga doir loyihalarning markazida bo‘lishi hamda har qanday kichik vaziyatda ham muayyan masalani mustaqil bajarishi uchun imkon berilishi bilan bog‘liq sa’y-harakat yotadi. Talabalar auditoriyadan tashqari holdagi loyihalarda dastavval kuzatuvchi, so‘ngra yordamchi, tashkil etuvchi, amalga oshiruvchi va nihoyat rahbar sifatida hal etilishi mumkin bo‘lgan aniq ijtimoiy muammoning boshqalar uchun muhimligini anglaydi va yechimi uchun o‘zida katta mas’uliyat mavjudligini his qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmudov I.I. Boshqaruv professionalizmi: Psixologik tahlil. – T.: Akademiya, 2011. – 304 b.

2. Musurmanova A, Isaqulova N.J., Jumaniyozova M.T., Jumayev A.Sh. Umumiy pedagogika II qism. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 194 b.

3. Astin A.W., Astin H.S. Leadership reconsidered: Engaging higher education in social change. Los Angeles: Higher education research institute. 2000. – 103 p.

4. Фетискин Н.П., Козлов В.В., Мануйлов Г.М. Социально-психологическая диагностика развития личности и малых групп. – М. Изд-во Института Психотерапии. 2002 – 222 с.

5. Djurayev A.S. Malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning kasbiy malakasini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish. Ped. fan. fal. dok. (PhD) ... diss. – Samarqand, 2019. – 162 b.

6. Ibragimova G.N. Interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. Ped. fan. fal. dok. (PhD) ...dis. – T.: 2017. – 155 b.

7. Mutalov S.X. Developing student’s leadership skills through trainings // “Актуальные вопросы современной науки и образования” сборник статей XII Международной научно-практической конференции. – Пенза, 2021. – С.223-225.

8. Mutalov S.X. Oliy ta’lim muassasalarida ijtimoiy faollik muhitini yaratish orqali talabalarda liderlik qobiliyatini rivojlantirish // BuxDU “Pedagogik mahorat” ilmiy-nazariy va metodik jurnali – Buxoro, 2022. – №2. – B.75-79. http://journal.buxdupi.uz/index.php/journal-buxdupi/article/download/342/265#page=76